


RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH
MARKAZI ANDIJON FILIALI



**2.2-Modul : Favqulodda vaziyatlarda axoliga
tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish**

Uslubiy kengashda muhokama
qilindi va ma'qullandi
« 6 » yanvar 2026 yil
Uslubchi: Jah.

Andijon-2026 yil

3-Mavzu	Favqulodda vaziyatlar (F.V) . Jabrlanganlarni tibbiy saralash
Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli	
<i>Vaqt: 80 daqiqa</i>	<i>Tinglovchilar soni: 15 ta</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</i>	Nazariy mashg'ulot
<i>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Favqulodda vaziyatlar haqida tushuncha. 2. Favqulodda vaziyatlar turlari. 3. Favqulodda vaziyatlarda xal etiladigan asosiy vazifalar. 4. Favqulodda vaziyatlar kelib chiqish sabablari manbalari. 5. Jabrlanganlarni tibbiy saralash
<i>O'quv mashg'uloti maqsadi:</i>	
<p>1.Ta'limiy:Tinglovchilarga favqulodda vaziyatlar haqida ma'lumot berish.</p>	
<p>2. Tarbiyaviy: Tinglovchilarga favqulodda vaziyatlarda bemorlarning ruhiy, ijtimoiy va ma'naviy azoblanishini tushunish va kerakli yordamni ko'rsatish.</p>	
<p>3.Umum rivojlantiruvchi: Tinglovchilarga favqulodda vaziyatlarda bemorlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, shoshilinch yordam ko'rsatishdagi ko'nikma va malakalarini shakllantirish.</p>	
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Favqulodda vaziyatlar haqida tushuncha bilan tanishtirish. 2. Favqulodda vaziyatlarda xal etiladigan asosiy vazifalar ma'lumot berish. 3. Favqulodda vaziyatlarda xal etiladigan asosiy vazifalar o'rgatish 	<p>O'quv faoliyatining natijalari: Tinglovchi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Favqulodda vaziyatlar haqida tushuncha oladi. 2. Favqulodda vaziyatlar turlari bo'yicha ma'lumot olishadi. 3. Favqulodda vaziyatlarda xal etiladigan asosiy vazifalarini o'rganishadi.
<i>O'kitish metodlari</i>	"Ma'ruza o'qish", "Muz yorar", "Fikriy hujum"usullari
<i>O'quv faoliyatini tashkil etish shakli</i>	Jamoaviy, guruhlarda ishlash , yakka tartibli
<i>O'qitish vositalari</i>	Prezentatsiya , ma'ruza matnlari, doska, elektron doska, marker,videoroliklar, tarqatma materiallar
<i>O'qitish shart sharoiti</i>	Fanga mos jihozlangan o'quv xona.
<i>Kayta aloqaning usul va vositalari</i>	Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov, bajarilgan o'quv topshiriqlarni baholash

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Mavzu: Favqulodda vaziyatlar (F.V) . Jabrlanganlarni tibbiy saralash

Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqt: 80 min.

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa	Tashkiliy kism	
	<p>1.1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorgarligini tekshiradi.</p> <p>1.2 O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi.</p> <p>1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalarini tushuntiradi.</p>	<p>Javob beradilar Tinglaydilar. Yozib oladilar</p>
2-bosqich. Asosiy qism 65 daqiqa 1. Tinglovchilar bilimini tekshirish va baholash –20 daq. 2. Yangi mavzuni to'liq bayon etish – 35 daq. 3. O'qitishning noanaviy usullarini qo'llagan holda tinglovchilar bilimlarini mustahkamlash.-10 daq.	<p>1. Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testi yoki og'zaki so'rov o'tkazish.</p> <p>2. Yangi mavzu mazmuni o'qituvchi tomonidan "Ma'ruza o'qish" usulidan tushuntiriladi: Tinglovchilarni favqulodda vaziyatlar haqida tushuncha, favqulodda vaziyatlarda xal etiladigan asosiy vazifalar, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish xavfsizligi, jabrlanganni birlamchi tibbiy ko'rikdan o'tkazishni o'rgatish , bu xolatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish, dori vositalarni ichirish yoki in'eksiya orqali yuborib davolashning o'ziga xos tomonlari o'rgatiladi.</p> <p>3. Har bir reja tushuntirilganda bilimlar "Fikriy hujum" usuli orqali mustahkamlanib boriladi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollarga yoki og'zaki savollarga javob beradilar.</p> <p>Yangi mavzu bayonini yozib oladilar.</p> <p>Tushunmagan joylarini savol tariqasida yo'llab javob oladilar.</p> <p>"Fikriy hujum" usuli orqali tinglovchilar bilimi mustahkamlanadi</p>
3-bosqich. Yakuniy 5 daqiqa	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag'batlantiriladi.Uyga vazifa o'tilgan mavzuni takrorlash.</p> <p>Foydalanadigan adabiyotlar:</p> <p>1.Tojiev M.X., Nigmatov I "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi". O'quv qo'llanma –T.: MChJ., Ta'lim manbai, 2002y</p> <p>2. Yu.Allayorov. Yu.Tojiboev“Favkulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.” 6-14-bet</p> <p>3. D.M . Sabirov, A.Z.Gazizov “ Birinchi tibbiy yordam “ O'quv qo'llanma Toshkent-2017y. 5-10 betlar</p> <p>4. http:// hozir/ org></p>	<p>Tinglaydilar, uyga vazifalarni belgilab oladilar.</p>

Mavzu: Favkulodda vaziyatlar (F.V) haqida tushuncha. Favkulodda vaziyatlar tasnifi

Favkulodda vaziyat (FV) - bu xolat muayyan bir xududda sodir bo'lgan baxtsiz xodisa, tabiiy ofatlar, xalokatlar, inson xayotiga, sog'ligiga yoki atrof muxitga zarar yetkazadigan, jiddiy moddiy yo'kotishlar va turmush sharoitlarining buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan tabiiy yoki boshka ofatlar.

Avariya - texnogen xususiyatga ega bo'lgan, konstruktiv, sanoat, texnologik, ishlab chikarish va ishlatish jarayonda texnik inshootlar va qurilmalarning ishdan chiqishi yoki zararlanishi natijasida sodir bo'ladigan baxtsiz xodisalar va falokatlar.

Falokat – katta ishlab chiqarish yoki yo'l- transport xodisasi sabab inson qurbonlari, katta miqdordagi moddiy zarar va boshka og'ir jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan xodisa.

Xavfli tabiat xodisasi - o'z-o'zidan sodir bo'ladigan tabiiy jarayon bo'lib, o'zining kelib chiqishi, takrorlanishi, tarqalishi, davomiligi va qudratiga qarab odamlar hayoti , iktisodiyat va atrof muxitga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xolat.

Tabiiy ofat – odamlar salomatligiga ta'sir etadigan yoki ko'plab insonlar xalokatiga sabab bo'ladigan, jiddiy moddiy zarar va boshka og'ir talofatlar keltiradigan tabiat xodisasi

Favkulodda vaziyatlar turlari

- 1.Tabiiy xususiyatli FV
2. Texnogen xususiyatli FV
3. Ekologik FV
4. Ijtimoiy (sotsial) xususiyatli FV
5. Kosmogen FV

Tabiiy xususiyatga ega bo'lgan FV tasnifi:

- 1.Geofizik xodisalar
- 2.Geologik xodisalar
- 3.Meteorologik xodisalar
- 4.Gidrologik xodisalar
- 5.Tabiiy yonginlar

6. Odamlarning yuqumli kasalliklarga chalinishi
7. Xayvonlarning yuqumli kasalliklarga chalinishi
8. Qishlok xo'jalik o'simliklarining ommaviy kasallanishi yoki zararkunandalar tamonidan zararlanishi.

Texnogen tisdagi favqulodda vaziyatlar

1. Transportdagi avariyaalar
2. Portlashlar
3. Zaxarli kimyoviy moddalar (ZKM) bilan bog'lik avariyaalar
4. Radiatsion moddalar (RM) bilan bog'lik avariyaalar
5. Zararli biologik moddalar (ZBM) bilan bog'lik avariyaalar.
6. Inshootlar, imoratlarning qulashi.
7. Elektro energetik tizimlardagi avariyaalar.
8. Kommunal xo'jaliklardagi avariyaalar.
9. Tozalash inshootlaridagi avariyaalar.
10. Hidroinshootlardagi avariyaalar.

Ekologik tisdagi favqulodda xolatlar

1. Quruqlik (tuproq, yer osti) ning holatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq vaziyatlar;
2. Atmosfera (havo muhiti) tarkibi va xossalari ning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar
3. Hidrosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar

Ijtimoiy tisdagi favqulodda xolatlar

1. Urushlar;
2. Lokal yoki mintakaviy konfliktlar;
3. Terrorizm;
4. Ocharchilik;
5. Kriminal (bosqinchilik, firibgarlik i b.);
6. Shaxsning ruxiy turg'unligini buzadigan moddalar (alkogol, narkotik, nikotin) iste'mol kilish;
7. Suitsid (o'zini o'zi o'ldirish);
8. Katta ish tashlash, namoyishlari;
9. Tartibsizliklar;
10. Buzg'inchiliklar (Pogromы);
11. Ataylab yondirishlar.

Kosmogen tisdagi favqulodda xolatlar

1. Planetalar xarakati;

2. Yer shari orbitasining shakli va yer sharining xarakati;
3. Yerning magnit va elektron maydoni;
4. Yer va oy o'zaro xarakati;
5. Kometalar xarakati;
6. Asteroidlar xarakati.

Favkulodda vaziyatlarda xal etiladigan asosiy vazifalar.

- *Favkulodda vaziyatlardan oqoxlantirish.*
- *Axolini favkulodda vaziyatlar zonasida ximoya qilish*
- *Favkulodda vaziyatlar zarbalaridan axolini qutqarish*
- *Favkulodda vaziyat zararlarini bartaraf qilish.*

Favkulodda vaziyatlar ta'siri:

- Odamlar xalokati.
- Inson salomatligi va atrof muxitga yetkaziladigan zarar.
- Moddiy yo'kotishlar.
- Yashash sharoitining buzilishi

Birinchi tibbiy yordam

Birinchi tibbiy yordamni voqea joyida, voqea joyi yaqinida bo'lgan va jabrlanganni birinchi bo'lib ko'rgan yoki aniqlangan shaxslar tomonidan ko'rsatiladi. Shuningdek, tibbiy yordamdan jabrlangan shaxs o'z-o'zidan foydalanish mumkin. Ba'zi xollarda birinchi tibbiy ko'rsatishni zudlik bilan boshlash inson xayotini saqlab qolishning eng muxim omili xisoblanadi. Aniqsa, birlamchi tibbiy yordam sifati jabrlanuvchini davolashni davom etirish natijalariga, keyinchalik esa asoratlar paydo bo'lishiga xam ta'sir ko'rsatadi.

Birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari:

1. Voqea joyini ko'zdan kechirish, baxolash (xavf –xatar yo'qligiga ishonch xosil qilish).
2. Jabrlanganni birlamchi ko'rikdan o'tkazish, organizmning xayotiy muxim funksiyalar (es-xushi, nafas, qon aylanish) bilan bog'liq xolatini baxolash.
3. Xayotiy ko'rsatmalarga asosan o'z vaqtida va tegishlicha yordam ko'rsatish (yurakni uqalash , sun'iy nafas berish va h.k).

4. Qo‘shimcha yordam chaqirish . Zarurat to‘g‘ilsa, avariya- qutqaruv xizmatini chaqirish lozim.
5. Jabrlanuvchini qayta ko‘rikdan o‘tkazish va zarur yordamni ko‘rsatish (nisbatan jaroxatlanishlarni aniqlash uchun), jaroxatlanish turidan kelib chiqib,jabrlanuvchini kerakli xolatda joylashtirish.
6. “ Tez tibbiy yordam” yetib kelguncha jabrlanuvchining umumiy xolati (es-xushi, nafasi, tomir urishi)ni nazorat qilib turish.

Birinchi yordam ko‘rsatayotganda xavfsizlik

Voqea joyini ko‘zdan kechirish. Xar qanday odam (qutqaruvchi) voqea joyida bo‘lib qolganda to‘xtatishi , atrofni kuzatib chiqish, yaxshilab o‘ylab , keyin xarakat qilish lozim.

Birinchi navbatda, sizning xavfsizligingizga taxdid yo‘qligini aniqlab olishingiz shart. Qutqaruvchi uchun doimo birinchi darajadagi masala uning sog‘ligi va xavfsizligi bo‘lishi kerak.

Voqea joyiga yaqinlashayotganda juda extiyotkor ,xushyor bo‘lish talab qilinadi. Agar xavf aniqlansa , uni bartaraf qilishga xarakat qilish yoki jabrangan bilan birga xavfsiz joyga ko‘chish lozim bo‘ladi. Agar siz xavf omilini bartaraf eta olmasangiz va jabrlanganni xavfsiz joyga ko‘chira olmasangiz, unda “tez yordam” , avariya-qutqarish xizmatini (o‘t o‘chirish xizmati, favqulodda xizmat , militsiya va x.k) chaqirishingiz va ular yetib kelguncha xavfsiz joyga turib turishingiz kerak. Agar jabrlanuvchi xushida bo‘lsa , siz esa voqea joyiga yaqinlasha olmasangiz, jabrlanuvchini uzoqdan turib ogoxlantirishingiz, unga maslaxat berib, xavfli xududni tark etishni o‘rgatiga urinib ko‘rishingiz mumkin.

Sizga va jabrlanuvchiga xavf soluvchi omillar- usti ochiq elektr simlari, gaz , alanga, tutun, intensiv transport qatnovi, gaz balonni portlash xavfi, binolarning qulayotgan qismi, tosh qulash,zaxarli toksik ajralmalar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Jabrlanganni birlamchi ko‘rikdan o‘tkazish

Voqea joyida bir o‘zingiz bo‘lib qolsangiz birinchi navbatda jabrlanganni birlamchi ko‘rikdan o‘tkazish kerak (xushi bor-yo‘qligini aniqlash, nafasni tekshirish, uyqu arteriyasidan pulsni aniqlash va boshkalar). So‘ngra “ tez yordam” chaqirishga xarakat qiling va jabrlanganga o‘pka- yurak reanimatsiyasini qon aylanish va nafas olish tiklanguncha ko‘rsatishni davom etiring. Qon aylanish va nafas olish tiklanib qolsa , jabrlanuvchini muqim yonbosh xolatda yotqizib ko‘ying. Uning xolatini nazoratdan chetda qoldirmang.

Jabrlanuvchi xushsiz bo'lsada , nafasi buzilmagan va uyqu arteriyasida puls aniqlanayotgan bo'lsa “ tez yordam” chaqirishga xarakat qiling. Qo'shimcha jaroxatlar sezsangiz, jaroxatlanish turi va soxasiga qarab kerakli birinchi yordam ko'rsating.

Mobodo jabrlanuvchi xushsiz bo'lsa, uyqu arteriyasi urishi aniqlanayotgan bo'lsa va tili ortga ketib qolsa, qusishga xarakatlar kuzatilsa, uni muqim yonbosh xolatiga keltirib “tez yordam” chaqirishga xarakat qiling. Nafas, xush va pulsni nazorat qilishda davom eting.

Agar jabrlanuvchi murojaatingizga so'z bilan e'tibor qilsa, ko'zini ochsa va savrllarga javob bersa, undan ismi –sharfi, shikoyatlarini so'rash, niahma voqea bshlganiga aniqlik kiritish va og'riqlar bor yo'qligi to'g'risida ma'lumot yig'ish lozim. Tez yordam qilguncha jabrlanuvchini nazorat qilib turish kerak.

Nazorat savollari

1. Фавқулудда вазият (ФВ) тушунчасига қандай таъриф берилади?
2. Авария ва фалокат (катастрофа) тушунчаларининг асосий фарқи нимада?
3. Хавфли табиат ҳодисаси ва табиий офат тушунчаларини изоҳлаб беринг.
4. Фавқулудда вазиятлар келиб чиқиш хусусиятига кўра қайси 5 та асосий турга бўлинади?
5. Геофизик, геологик ва метеорологик ҳодисалар ФВнинг қайси турига киради?
6. Техноген хусусиятли фавқулудда вазиятларга 3 та мисол келтиринг.
7. Экологк тусдаги ФВлар қандай ўзгаришлар билан боғлиқ ҳолда юзага келади?
8. Ижтимоӣ (социал) тусдаги ФВлар таркибига кирувчи камида 5 та ҳолатни санаб ўтинг.
9. Космоген тусдаги фавқулудда ҳолатларга нималар киради?
10. ФВларда ҳал этиладиган 4 та асосий вазифа нималардан иборат?
11. Фавқулудда вазиятларнинг инсон ва атроф-муҳитга кўрсатадиган асосий таъсирлари (оқибатлари) нималар?
12. Биринчи тиббий ёрдам кимлар томонидан ва қаерда кўрсатилиши керак?
13. Нима сабабдан биринчи тиббий ёрдамни зудлик билан бошлаш ўта муҳим омил ҳисобланади?
14. Бирламчи тиббий ёрдам кўрсатишнинг 6 та босқичини кетма-кетликда айтиб беринг.
15. Воқеа жойига яқинлашаётганда қутқарувчи биринчи навбатда нимага ишонч ҳосил қилиши шарт ва нима учун?
16. Қутқарувчи ва жабрланувчига хавф солувчи ташқи омилларга нималар кириши мумкин?

17. Агар воқеа жойида хавф мавжуд бўлса-ю, лекин кутқарувчи уни бартараф эта олмаса, қандай йўл тутиши керак?
18. Жабрланувчининг ҳушида ёки ҳушсиз эканлиги қандай усулда аниқланади?
19. Сафар усули нима ва у нафас йўллари очишда қандай бажарилади?
20. Нормал нафас ва агонал нафаснинг фарқи нимада? Улар қандай баҳоланади?
21. Уйқу артериясида пульс қандай ва қанча вақт давомида текширилади?
22. Жабрланувчини иккиламчи (тўлиқ) кўрикдан ўтказишдан асосий мақсад нима?
23. Кўрик пайтида аниқланган «суяк крепитацияси (ғичирлаши)» нимани англатади ва у аниқланганда нима қилиш керак?
24. Қулоқ ёки бурун йўлидан тиниқ суюқлик келиши қайси оғир жароҳатнинг белгиси ҳисобланади?
25. Шошинч тиббий ёрдам тизимида беморлар «Қизил», «Сариқ» ва «Яшил» йўлакларга қайси мезонларга кўра тақсимланади?

“Fikriy hujum” usuli

❖ *Mazkur pedagogik usul tahsil oluvchilarning mashg‘ulotlar jarayonidagi faolliklarnita’minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rangbarang g‘oyalarni to‘plash uchun xizmat qilamiz.*

- ❖ *“Fikriy hujum” usulining asosiy tamoyili va sharti mashg‘ulot (baxs)ning har bir ishtirokchisi tomonidan o‘rtaga tashlayotgan fikrga nisbatan tanqid mutloqo ta’qiqlash , har qanday luqma va hazil- mutoyibalarni rag‘batlantirishdan iboratdir. Ta’lim jarayonida ushbu usuldan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko‘lamining kengligiga bog‘liq bo‘ladi.*
- ❖ *“Fikriy hujum” usulidan foydalanish chog‘ida tahsil oluvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvafiqdir.*
- ❖ *Xar bir 5 yoki 6 nafar tahsil oluvchilarni o‘z ichiga olgan guruhlariga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo‘lgan turli xil topshiriq yoki savol o‘rtaga tashlanadi.*
- ❖ *Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh a’zolaridan biri axborot beradi.*
- ❖ *Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o‘qituvchi va boshqav guruh a’zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi.*
- ❖ *Mashg‘ulot jarayonida guruh a’zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko‘ra baholab boriladi.*

Mavzuga oid testlar

1. Favqulodda vaziyat (FV) ta'rifiga to'g'ri ta'rif qaysi?

- A) Xar qanday tabiiy xodisa
- B) *Inson xayotiga , sog'ligiga yoki atrof-muxitga xavf soladigan , moddiy yo'qotishlar va turmush sharoitlarini buzadigan xolat
- V) Faqat texnogen avariylalar
- G) Faqat ijtimoiy mojarolar

2. Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyat turiga kiradigan xolat qaysi?

- A) Yo'l – transport xodisasi
- B) *Er qimirlash
- V) Zavodda portlash
- G) Elektroenergetik tizim avariylasi

3. Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar turiga kirmaydigan holat qaysi?

- A) Radiatsion moddalar bilan bog'liq avariya
- B) Transport avariylasi
- V) Inshootning qulashi
- G) *Er qimirlashi

4. Ijtimoiy tusdagi favqulodda holatlardan biri:

- A) Sel
- B) *Terrorizm
- V) Asteroid harakati
- G) Hayvonlar kasallanishi

5. Birinchi tibbiy yordam qachon boshlanishi lozim?

- A) Jabrlanuvchi kasalxonaga kasalxonaga yetkazilgandan keyin
- B) Faqat shifokor kelganida keyin
- V) * Voqea joyida , darhol
- G) Faqat qutqaruvchilar tomonidan

6. Jabrlanuvchini tekshirishda birinchi navbatda nima e'tibor berish kerak?

- A) Uning kiyimlari va xujjatlariga
- B) Sizing xavfsizligingizga
- V) Jarohatlarni yozishga
- G) Qon bosimni o'lchashga

7. "Safar usuli" qanday maqsadda qo'llaniladi ?

- A) Qon to'tatish uchun
- B) *Nafas yo'lini ochish uchun
- V) Suyak sinishini tuzatish uchun
- G) Arterial bosimni o'lchash uchun

8. Uyqu arteriyasida pulsni aniqlash uchun necha soniya tekshirish kerak?

- A) 3 soniya
- B) 5 soniya
- V) * 10 soniya
- G) 20 soniya

9. Tabiiy yong'inlar qaysi toifaga kiradi?

- A) Tabiiy favqulodda xolat
- B) Texnogen xolat
- V) Ijtimoiy xolat
- G) *Ekologik xolat

10. Texnogen favqulodda vaziyatlarga xos misol qaysi?

- A) Yer silkinishi
- B) *Inshootning qulashi
- V) Suv toshqini

G) Qishloq xo'jaligi zararkunandalari

11. Kosmogen favqulodda vaziyatlarga misol qaysi?

A) *Kometa xarakati

B) Inshootning qulashi

V) Yo'l- transport hodisasi

G) Zavoddagi portlash

12. Ijtimoiy favqulodda vaziyatlarga kirmaydigan xolat qaysi?

A) Urish

B) Terrorizm

V) *Suv toshqini

G) Namoyishlar

13. Birinchi tibbiy yordamning eng muxim vazifa nima?

A) Jabrlanuvchini shifokorga yetkazish

B) *Jabrlanuvchining hayotini saqlab qolish

V) Hujjatlarni yig'ish

G) Tez yordam chaqirish

14. Jabrlanuvchini tekshirishda qaysi bosqich birinchi bajariladi?

A) Uning kiyimlarini ko'zdan kechirish

B) Voqea joyini xavfsizligini ta'minlash

V) *Pulsni tekshirish

G) Qon bosimini o'lchash

15. Nafasni tekshirish qancha vaqt davom etadi?

A) 3 soniya

B) 5 soniya

V) *10 soniya

G) 20 soniya

16. Yurak to'xtaganda keyin kuzatilishi mumkin bo'lgan "agonal" nafas qanday?

A) Sokin va tekis

B) *Kam sonli, chuqur va shovqinli

V) Faqat og'iz orqali

G) Yo'q

17. Jabrlanuvchi hushsiz holda tekshirish uchun avval nima qilish kerak?

A) *Uni silkitib ko'rish

B) Uning xujjatini topish

V) Darxol yordam chaqirish

G) Qon bosimini o'lchash

18. Qorin jaroxatida qanday xarakat to'g'ri emas?

A) *Jaroxatdan yot jisimni olib tashlash

B) Qon ketishni to'xtatish

V) Aseptik bog'lash

G) Jabrlanuvchini tinch xolatda yotqizish

19. Quloqdan tiniq suyuqlik chiqishi qaysi xolat belgisi bo'lishi mumkin?

A) Yer qimirlashi

B) *Kalla kuyaklari singani

V) Qovurg'a sinishi

G) Qon kamayishi

20. "Bo'yin yoqa" (varotnik) qaysi holatda qullaniladi?

A) Yurak to'xtaganda

B) *Bo'yin umurtqasi jaroxatlanganda

V) Qon ketganda

G) Suvsizlanishda

Вазиятли масалалар

1-масала:

Йўл-транспорт ҳодисаси натижасида шифохонанинг қабул бўлимига бир вақтнинг ўзида учта жабрланувчи олиб келинди:

1. **1-жабрланувчи:** Тез-тез ва юзаки нафас олмоқда, ҳушсиз, чап сон соҳасидан кучли қон кетмоқда, пульси жуда кучсиз ва тезлашган.
2. **2-жабрланувчи:** Ҳушида, қорнининг пастки қисмида кучли оғрик борлигидан шикоят қиляпти, артериал қон босими юқори.
3. **3-жабрланувчи:** Енгил шилинган ва тирналган жароҳатлари бор, оёқ-қўллари ҳаракатланяпти, умумий ҳолати қониқарли, лекин кучли қўрқув (стресс) ҳолатида.

Савол: Юқоридаги маъруза матнида келтирилган тиббий саралаш (триаж) усулига кўра, ушбу беморларнинг ҳар бири қайси рангли йўлакка («Қизил», «Сариқ», «Yashil») тақсимланиши керак ва уларга тиббий ёрдам кўрсатиш навбати қандай белгиланади?

2-масала:

Сиз кўчада кетаётганингизда ишлаб чиқариш биносининг яқинида симёғочдан узилиб тушган электр сими остида ҳушсиз ётган одамни кўриб қолдингиз. Атрофда бошқа ҳеч ким йўқ.

Савол: Биринчи ёрдам кўрсатиш алгоритмининг 1- ва 2-босқичларига асосан сизнинг биринчи навбатдаги ҳаракатларингиз нималардан иборат бўлиши керак? Жабрланувчига тўғридан-тўғри яқинлашиш мумкинми? Агар хавфни бартараф эта олмасангиз, қандай йўл тутасиз?

3-масала

Юрак хуружи оқибатида йиқилган беморнинг ёнига югуриб келдингиз. Уни чақириб, елкасидан туртганингизда ҳеч қандай жавоб бермади (ҳушсиз). Нафасини текшириш учун бошини орқага қилиб, иягини кўтардингиз (Сафар усули). Баҳолаш давомида бемор ҳар 15-20 сонияда бир маротаба чуқур, шовқинли ва қийинчилик билан ҳаво ютаётганини кузатдингиз.

Савол: Бемордаги ушбу нафас тури қандай номланади? Уни нормал нафас деб ҳисоблаш мумкинми? Сизнинг кейинги тезкор ҳаракатингиз (ўпка-урақ reanimatsiyasi) қандай бўлиши лозим?

4-масала

Тез ёрдам бригадаси етиб келгунига қадар, ҳаётига тўғридан-тўғри хавф солувчи омиллар инкор этилган (нафаси ва пульси бор) жабрланувчини иккиламчи кўрикдан ўтказмоқчисиз. Кўрик давомида қуйидаги белгиларни аниқладингиз:

- Чап қулоқ йўлидан суяқ, тиниқ суяқлик оқмоқда.
- Кўкрак қафасини пайпаслаганингизда 4-5 қовурғалар соҳасида бармоқларингиз остида ғичирлаш (крепитация) сезилди ва бемор қаттиқ ингради.
- Қорин соҳасини текширганингизда унда жароҳат борлиги ва ичак шиллиқ қисми ташқарига чиқиб турганини кўрдингиз.

Савол: Ушбу аниқланган белгилар (қулоқдан тиниқ суяқлик келиши, кўкракдаги ғичирлаш, қорндан аъзоларнинг чиқиши) қайси оғир шикастланишлардан далолат беради? Қорин жароҳатидаги чиқиб турган ичак бўлақларига қандай муносабатда бўлиш керак?

Mavzu	Tibbiy saralash (trijaj usuli) va evakuatsiya qilish. Evakuatsiya bosqichlarida tibbiy yordam turlari.
--------------	---

Amaliy mashg'ulotni o'qitish texnologik modeli

<i>Vaqt: 160 daqiqa</i>	<i>Tinglovchilar soni: -----</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</i>	Amaliy mashg'ulot
<i>Amaliy mashg'ulotining rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Jabrlanganlarni tibbiy saralash 2. Jabrlanganlarni evakuatsiya qilish 3. Ommaviy talofat o'chog'ida birinchi yordam ko'rsatish. 4. Jabrlanganlarni axvolini baxolash. 5. Birlamchi va ikkilamchi ko'rikdan o'tkazish.
<i>Amaliy mashg'ulotni maqsadi:</i>	
<p>1. Ta'limiy: Tinglovchilarga jabrlanganlarni tibbiy saralash va evakuatsiya qilish xolatlarida amaliy ko'nikmalar bo'yicha bilim berish.</p> <p>2. Tarbiyaviy: Tinglovchilarga kritik xolatlarda bemorlarning ruhiy, ijtimoiy va ma'naviy azoblanishini tushunish va kerakli yordamni ko'rsatish.</p> <p>3. Umum rivojlantiruvchi: Tinglovchilarga jabrlanganlarni tibbiy va evakuatsiya qilish saralash bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirish.</p>	
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyatining natijalari: Tinglovchi:
<ol style="list-style-type: none"> 1. Jabrlanganlarni tibbiy saralash va evakuatsiya qilishni o'rgatish 2. Jabrlanuvchilarni axvolini baxalash, asosiy xayyotiy ko'rsatkichlarini aniqlash tartibini ko'rsatib aytib berish. 3. Birlamchi va ikkilamchi ko'rikdan o'tkazishni ko'rsatib berish. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Jabrlanganlarni tibbiy saralash va evakuatsiya qilishni o'rganadilar. 2. Pulsni aniqlash nuqtalari, nafas o'tkazuvchanligini ta'minlash, nafas olishni sanashni bajarib o'rganishadi. 3. Amaliy muolajalarni tinglovchilar mustaqil bajaradilar. 4. Yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatadilar 5. Har bir amaliy muolajalarni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma tushuntirilganda bilimlar mustahkamlab boradi
<i>O'quv faoliyatini tashkil etish shakli</i>	Yakka tartibli
<i>Ukitish vositalari</i>	Doska-stend, videofilmlar, amaliy kunikmalar, mulyajlar, sekunamer
<i>Ukitish shart sharoiti</i>	Fanga mos jixozlangan amaliyot xonasi
<i>Kayta aloqning usul va vositalari</i>	Nazorat, amaliy kunikmalar, mashklar bajarilgan ukuv topshiriklarni baxolash, ogzaki savol javob.

**Mavzu: Tibbiy saralash (trijaj usuli) va evakuatsiya qilish.
Evakuatsiya bosqichlarida tibbiy yordam turlari.**

Tibbiy saralash (triaj usuli)da shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazlari va ularning filallarida bemorlar quydagi 3 ta asosiy yo‘lak bo‘yicha taqsimlanadi.

“qizil “ yo‘lak	O‘ta og‘ir holatlar	<ul style="list-style-type: none"> - Navbatsiz darxol reanimatsiya zaliga olinadi. - Misol: Og‘ir avtohalokat, yurak to‘xtashi, o‘tkir zaxarlanish
“ Sariq” yo‘lak	O‘rta og‘ir holatlar	<p>Shifokor 10-20 daqiqa ichida ko‘rish kerak. Misol: Kuchli qorin og‘rig‘i, yuqori qon bosim, o‘rtacha kuyish</p>
“Yashil” yo‘lak	Engil xolatlar	<p>Navbat asosida ko‘riladi. Misol: Yengil jaroxatlar, shamollash alomatlar, surunkal kasalliklarni qo‘zishi.</p>

Jabrlanuvchining xolatini baxolash

Jabrlanuvchining xolatini baxolash uchun bilakdagi nur arteriyasi urish soni, arteriyaning qonga to‘lish darajasini aniq bajarsa bo‘ladi. Qonga to‘lish darajasi susayishi arterial bosim pasayganda kuzatiladi. Puls tezlashishi shok xolatlarida, qon ketishlarda va boshqa jaroxatlanishlarda nomoyon bo‘ladi. Puls tezlashishi (taxikardiya), sekinlashishi (bradikardiya) va notekis urishi(aritmiya) yurakkon tomir tizimi kasalliklarida xam uchraydi. Nafas olish chastotasi,xarakteri, puls soni va qonga to‘lish darajasi va es-xushi o‘zgarishiga qarab jabrlanuvchining xolati yaxshilanayotgani yoki aksincha yomonlashayotganini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Es – xushini aniqlash

Jabrlanuvchini chaqiring:”Sizga nima bo‘ldi?”, “ Sizga yordam keraki?”,”O‘zingizni qanday xis qilyapsiz?” deb murojat qiling. Agar jabrlanuvchi javob bermasa, uning yelkasiga sekin –asta turtib ko‘rish , silkiti ko‘rish lozim. Agar xarakatlaringizga jabrlanuvchi javob qilmasa, demak u xushsiz.

Nafasni aniqlash

Nafasni aniqlashdan oldin , nafas yo‘llarini o‘tkazuvchanligini ta‘minlash kerak bo‘ladi. Buning uchun boshni ortga qilib , pastki jag‘ni ko‘tarish (Safar usuli) lozim. Yuzingiz bilan bemorning yuziga taxminan 10 sm masofaga engashing va 10 soniya davomida ko‘krak qafasi nafas xarpkatlarini kuzating, chiqarilayotgan nafas shovqinni zshting, jabrlanuvchi chiqarayotgan xavo issig‘ini yuzingiz bilan xis qilishga xarakat qiling. Shuning esdan chiqarmanki , yurak to‘xtaganidan so‘ng, ma‘lum muddat kam sonli, chuqur va shovqinli (agonal) , yordamchi mushaklar ishtirokidagi nafas kuzatiladi.

Agonal nafasni normal nafas bilan adashtirib yubormang!
Normal nafas – xar 5-6 soniyada 1 martali sokin, bir tekis nafasdir.

Uyqu arteriyasida pulsni aniqlash.

Buning uchun , ko‘rsatkich va o‘rta barmoqlarni qalqonsimon tog‘ayga qo‘yib olib, keyin kekirdak va to‘sh- o‘mrov so‘rg‘ichsion mushak oralig‘idagi egatgacha siljitish kerak bo‘ladi. Chuqur bradikardiyada tomir urishini o‘tkazib yubormaslik uchun pulsni aniqlash kamida 10 soniya davomida davom etirish lozim.

Pulsni aniqlash malakasiga ega bo‘lmagan qutqaruvchilar odatda , pulsni aniqlay olmasliklari mumkin.

Jabrlanuvchini tekshiruvdan o‘tkazish

Jabrlanuvchining xayotiga xavf soluvchi xolat inkor qilingach, tekshiruv qilishni davom etirish mumkin. Uni tezkor, ammo diqqat bilan , bosqichma – bosqich va to‘liq ko‘rib chiqish kerak.
Ikkilamchi ko‘rikdan maqsad , extiyotlik bilan asosiy jabrlanishni aniqlash va umumiy xolat yomonlanishishi yoki jabrlanuvchi xalok bo‘lishining oldini olishdir.

Boshni tekshirish

Boshni ko‘zdan kechiring: deformatsiya yo‘qmi, qon ketmayaptimi, qon quyilishi yoki jaroxatlar bor- yo‘qligini aniqlang. Barmoq uchlarini extiyotkorlik bilan ishlatib, og‘riqli va shishli soxalarni paypaslab chiqing. Agar paypaslayotganizda g‘isirlash sezsangiz o‘sha zaxoti tekshiruvni to‘xtating. G‘isirlash (suyak

krepatatsiyasi) --- kalla suyaklari sinishi belgisidir va bu og'ir kalla – miya jaroxati borligidan dalolat beradi.

Yuzni tekshirish

Yuzni ko'zdan kechirayotganda yuzning o'ng va chap qisimlarini solishtirib, mimmetriya borligiga e'tibor qaratish, qontalashlar, jaroxatlar va boshqa jaroxatlanishlar (kuyish va boqa)bor- yo'qligini aniqlash kerak.

Ko'zlar va qovoqlarni tekshirish

Qontalashlar , qon quyilishlar, yot jismlar bor-yo'qligiga e'tibor qiling. Ko'z qorachig'lari xolatini tekshiring (tor, kengaygan, xar xil), qorachig'lar nur sezuvchanligini aniqlang. Nigox qandayligi (bir nuqtaga qaragan, atrofga aylanuvchi), ko'z oqlari rangiga (sarg'ayganni) ga axamiyat bering.

Burunni tekshirish

Burun shakli o'zgarmaganmi, burundan qon ketmayaptimi, burun yo'llarida qon laxatlari yo'qmi, burundan tiniq suyuqlik oqmayaptimi- shularga e'tibor qarating!

Quloqlarni tekshirish

Quloqlarni tekirayotganda quloq suprasi shakli o'zgarmaganmi, quloq suprasi sinmaganmi, eshtish yo'llarida qon laxtasi, qon ketishi yoki tiniq suyuqlik oqayotgan xolatlar bor –yo'qligiga axamiyat bering. Eshtish yo'lida tiniq suyuqlik aniqlanishi kalla asosi singanidan dalolat beradi.

Jag'larni tekshirish

Pastki jag' deformatsiyasi bor-yo'qligiga e'tibor qaratish, og'izni ochish- yopishda og'riq paydo bo'lmayaptimi, pastki jag' oldinga siljib ketmaganmi (chiqib qolishi) kabilarga axamiyat berish kerak.

Og'iz bo'shlig'ini tekshirish

Bunda tushgan yoki singan tishlar, tish protezi bor –yo'qligiga e'tibor qaratish, og'iz bo'shlig'ida qon laxtasi yoki qon ketish joyi, tilda (tishlangan), og'iz shilliq pardasida jaroxatlanish bor – yo'qligiga axamiyat qilish lozim.

Bo'yin va umirtqaning bo'yin qismini tekshirish

Bunda juda extiyotkorlik bilan o'tkazish shart. Agar og'riq paydo bo'lsa , biron bir travmatik jaroxatlanish aniqlansa, tekshiruv darhol to'xtatiladi va maxsus bo'yin yoqa (bunday bo'yin yoqa bo'lmaganda uni qo'l bola yasab qo'llash mumkin) taqib qo'yiladi. Boshni iloji boricha qimirlatmaslikka harakat qilish kerak.

Ko'krak qafasini tekshirish

Bu tekshiruvni o'tkazayotgan jaroxatlar, shilinishlar, teri osti gematomalari, og'riqli sohalar va bu sohalarda krepatatsiya (qovurg'alar sinishi) bor- yo'qligiga e'tibor qarating. Paypaslayotganda teri osti klechatkasida g'ichirlash (krepatatsiya) aniqlanishi mumkin. Bu – o'pkalar jaroxatlanishi belgisidir. Qovurg'alar singanda siniq joyida kuchli og'riq seziladi, mustaqil nafas olishning deyarli iloji qolmaydi.

Qorinning tekshirish

Qorinni barmoqlaringiz uchlari bilan paypaslab, xolatini aniqlang: yumshoq (og'riqsiz) yoki qattiq (og'riqli, taranglashgan). Jaroxatlanish bor-yo'qligiga xam e'tibor qarating. Agar jaroxatlanish bo'lsa , qorin bo'shlig'i a'zolari (ichak , yog' chavrisi) chiqib ketgan yoki yo'qligiga axamiyat bering. Agar jaroxatda yot jism aniqlansa , uni aslo olib tashlamang! Bunday muolajalar faqatgina mutaxassislar tomonidan tibbiyot muassasalarida bajariladi.

Chanoqni tekshirish

Yonbosh suyaklariga qo'lingizni bosib ko'ring: agar dumg'azada yoki oraliqqa tarqaluvchi og'riq paydo bo'lsa, chanoq suklari sinishi haqida xulosa qilish mumkin.

Son, boldir va to'piqlarni tekshirish

Oyoqlarni ko'zdan kechirayotganingizda ichki jaroxatlar, ya'ni qon ketishi, oyoqlar deformatsiyasi, ayniqsa patologik bukiluvchanlik (bo'g'imlar yo'q joyidan bukilib yoki ezilish) yo'qligiga aloxida e'tibor qarating. Bo'g'imlar xarakatchanligini aniqlang, bemor oyog'ini buklay oladimi, buklayotgan paytda bo'g'imda yoki boshqa soxasida og'riq sezmayaptimi? Oyoqni paypaslab, og'riqli soxani yoki sohalarni, shuningdek, krepatatsiya bor-yo'qligini aniqlang. Agar og'riq va krepatatsiya aniqlansa (suyak sinishi), bu soxaga qayta tegmang. Bunday xolatda oyoqni immobilizatsiya qilish ya'ni shina qo'yish kerak bo'ladi.

Yelka , bilak va kaftlarni tekshirish

Qo'llarni xuddi oyoqlardek tekshiruvdan o'tkaziladi.

Gardanni tekshirish

Agar jabrlanuvchi avvaldan yonbosh holatda yotgan bo'lsa, gardanni tekshiruvdan o'tkaziladi. Gardan sohasida og'riq bor bo'lsa, jabrlanuvchini aslo yonbosh xolatga aylantirmang!

Jabrlanuvchini to'liq tekshiruvdan o'tkazib, aniqlangan patologiyaga mos birinchi yordam ko'rsatiladi.

Unitmangki, tekshiruvchi ehtiyotkorlik va ohistalik bilan o'tkazish lozim. Agar biron – bir harakat yoki muolaja og'riq chaqirsa , u darxol to'xtatiladi.

Pulsni o'lchash

Puls- bu yurak qisqarganda, qon tomirlari tizimiga haydalgan qon oqimining tomirlar devoriga urilishi natijasida kelib chiqadigan turtkisimon tebranishlardir. Pulsni bilak, uyqu, son, tirsak, chakka va boshqa arteriyalarida paypaslab aniqlash mumkin.

Anjomlar: soat (sekundomer), xulosalarni qayd etish ashyolari.

Bemorning xolati: o'tirgan yoki yotgan xolatda, osoyishta, o'zini bo'sh qo'ygan bo'lishi kerak.

Bemorga muolaja to'g'risida ma'lumot bering.

Muoljani bajarish:

1. Qo'llarni yuvish
2. Bilak arteriyasida pulsni aniqlash uchun bemorning bilagini bilak- kaft bo'g'imi soxasidan oxista ushlang. Bunda katta barmoq tirsak suyagida qolgan 4 ta barmoqlaringiz bilan arteriyasi ustida bo'lsin. Pulsni bitta barmoq bilan aniqlash mumkin emas.
3. Pulsni 30 soniya davomida sanang va 2 ga ko'paytiring. Agar bemorda aritmiya kuzatilsa, pulsni 1 daqiqa davomida sanang. Kattalarda puls chastotasi 60-80 tani tashkil etadi.

Nafas sonni sanash

Anjomlar: soat (sekundomer), xulosalarni qayd etish ashyolari.

Bemorning xolati: o'tirgan yoki yotgan xolatda, osoyishta, o'zini bo'sh qo'ygan bo'lishi kerak.

Bemorga muolaja to'g'risida ma'lumot berilmaydi, chunki u ongli ravishda nafas olish ritmini o'zgartirishi mumkin. Shuning uchun ko'pincha bu muolaja pulsni tekshirish bahonasida amalga oshiriladi.

Muoljani bajarish:

1. Qo'llarni yuvish
2. Bir qo'lingizni bemorning bilagiga quyib (pulsni tekshirayotgandek) Nafas olish va chiqarish harakatlarini kuzating.
3. Nafas olish sonini 30 soniya davomida sanang va 2 ga ko'paytiring
4. Olingan natijani (1 daqiqalik nafas soni) tibbiy xujjatga yoziladi
5. Nafas olishning chuqurligi va ritmi xam baxolanadi. (ritmik yoki aritmik, yuzaki yoki chuqur).

Nafas sonining me'yoriy ko'rsatkichlari (1 daqiqada)

- Yangi tug'ilgan chaqaloq :40-60

- 1 yoshgacha: 30-40
- 1-3 yosh: 25-30
- 4-6 yosh: 21-26
- 7-12 yosh: 18-20
- Katta yoshdagilar: 16-20
- Keksa yoshdagilar: 14-16 (ba'zan 20-22 gacha)